

CHIZMACHILIK FANIDAN DIDAKTIK O‘YINLI TEXNOLOGIYALARNING TA‘LIMY TARBIYAVIY AHAMIYATI

Maxmudov Abdunabi Abdug‘afforovich

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari
kafedrası stajor o‘qituvchisi, Jizzax sh., O‘zbekiston
e-mail:abdunabimaxmudov@gmail.com*

Annotatsiya. Ta’limning bugungi kundagi vazifasi o‘quvchilarni axborot-ta’lim muhiti sharoitida, har xil o‘yinli texnologiyalar asosida, mustaqil ravishda axborot texnologiyalaridan oqilona foydalana olishi, o‘qitishning yangi texnologiyalar asosida tashkil qilishga o‘rgatishdan iborat. Ushbu maqolada axborot texnologiyalaridan va interfaol metdoldardan foydalangan holda darslarni tashkil qilish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fazoviy tasavvur, ta’lim, ijodiy fikrlash, didaktika, o‘yin.

Abstract. The task of education today is to teach students to be able to use information technologies independently in the conditions of the information-educational environment, on the basis of various game technologies, to organize education on the basis of new technologies. This article talks about organizing lessons using information technologies and interactive methods.

Key words: spatial imagination, education, creative thinking, didactics, game.

Jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta’limning bugungi kundagi vazifasi o‘quvchilarni axborot-ta’lim muhiti sharoitida, har xil o‘yinli texnologiyalar asosida, mustaqil ravishda axborot texnologiyalaridan oqilona foydalana olishi, o‘qitishning yangi texnologiyalar asosida tashkil qilishga o‘rgatishdan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim to‘qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy xamda uch yillik majburiy - ixtiyoriy xarakterdagi o‘rta maxsus, kasb - xunar ta’limidan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim boshlang‘ich ta’limni xam qamrab oladi. Mazkur bosqichda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o‘zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ahloqiy fazilatlar, mexnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lish, shuningdek, kasb tanlash ko‘nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi.

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o‘quvchilarning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-xunar ma’lumotiga egaliklarini belgilaydi. Ma’lumki, to‘qqiz yillik (I-IX-sinflar) o‘qishdan iborat umumiy o‘rta ta’lim majburiy bo‘lib, ta’limning bu turida o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha

muntazam bilim olishlarini, ularda bilim oʻzlashtirish ehtiyojini, asosiy oʻquv – ilmiy va umummadaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan maʼnaviy–axloqiy fazilatlarni, mehnat koʻnikmalarini, ijodiy fikrlar va atrof–muhitga ongli munosabatda boʻlishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Taʼlimni tashkil etishdan koʻzlangan maqsad esa yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi mavjud layoqat va isteʼdodlarni rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlar orasidan bilimli, iqtidorli oʻquvchilarning aniqlash va ularni qoʻllab–quvvatlashga alohida eʼtibor berilmoqda. Maktab oʻquvchilari Chizmachilik fanidan nazariy bilimlarini va amaliy koʻnikmalarini yaxshi, hamda mukammal oʻzlashtirib olishlari uchun koʻp mashq qilishlari lozim boʻladi. Chizmani oʻqishga oʻrgatish oʻquvchilarning chizmada tasvirlangan predmetga, uni tuzilishi va tarkibiy qismlari toʻgʻrisida aniq ogʻzaki tavsif bera olish, toʻliq tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish demakdir. Oʻquvchilarda buyum chizmasini bajarishga doir va biror jism yoki modelning berilgan chizmasini oʻqishga oid topshirigʻni bajarishda, ularga tanish boʻlgan geometrik jismlarning yoki real buyumlarning geometrik shaklini fikran aniq tasavvur qila bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va fazoviy tasavvurlarining zahirasini kengaytirish hamda mustahkamlash kerak boʻladi. Fikran tasavvur qilish qobiliyati etarli rivojlanmagan taqdirda biror narsani grafik ravishda toʻliq va toʻgʻri tasvirlash qiyin boʻladi. Haqiqatdan ham biz chizmani koʻzdan kechirib unda tasvirlangan narsaning uzunligi, eni va balandligi hamda uning elementlarining tarkibiy qismlari va shartli belgilarini oʻrganib chiqib, narsani koʻz oʻngimizda yaqqol tasvirini gavdalantirib chizmasini oʻqiymiz. Shunday qilib chizmani oʻqish deganda narsalarni bajarilgan tasvirlariga asosan uning tashqi va ichki tuzilishlarini bilib hamda fahmlab bir butun obrazni tasavvur qilish, uning oʻlchamlarini, ishlov berish usullarini bilish tushuniladi. Bulardan koʻrinib turibdiki, chizmani oʻqishda fazoviy tasavvur eng asosiy koʻrsatkich ekan, shu sababli oʻquvchilarni fazoviy tasavvuri past boʻlsa, ular chizmani oʻqishda qiynaladilar va chizmachilikka boʻlgan qiziqishlari susayib boradi. Shuning uchun biz maktab chizmachilik darslariga butun eʼtiborimizni qaratib oʻquvchilarni fazoviy tasavvurini oshirishga bor kuch gʻayratimizni jalb qilishimiz zarur boʻladi. Shundagina biz yoshlarni kelgusidagi taʼlim bosqichiga (kasb-hunar kollejlariga) tayyorlagan boʻlamiz. Zamonaviy oʻqituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi hamda targʻibotchisi boʻlishi kerak. Hozirgi kunda maktab oʻquv rejalariga oʻzgartirishlar kiritilib har bir fanga alohida eʼtibor qaratilgan boʻlib, shu jumladan, chizmachilik fanlariga ham ahamiyat katta boʻlib, oʻquvchilarni fazoviy tasavvurini oshirish uchun turli

metodlar ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilmokda. Xususan, Chizmachilik fanlarini o'qitishda ijodiy o'yinlardan foydalanish o'sib kelayotgan yosh avlodni fazoviy tasavvurlarini kengaytirishga, grafikaga oid bilimlarni real o'zlashtirishga, idrok etish samaradorligini oshirish hamda ijodiy faolligini xar tomonlama kamol toptirishga zamin yaratadi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi o'quvchida mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. O'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi.

- *didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;*
- *o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;*
- *o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;*
- *o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;*
- *didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.*

Talablar darajasida o'qimayotgan o'quvchilar soni ko'pchilikni tashkil etishi – hozirgi eng tashvishli masalalardan biridir. Bolalarning «o'tish davri» shveysariyalik psixolog Jan-Piaje (1876-1980) ning fikricha, ularda ob'ekt va umuman borliq haqida mavhum fikrlashning yetilishi bilan xarakterlanadi. Bola hayotining barcha tomonlariga, uning hissiyotiga fikrlash faoliyatining murakkablashishi ta'sir ko'rsatadi. Amerika psixologi Stenli Xoll (1884-1923) ta'biri bilan aytganda mazkur davr bolaning ichki va tashqi ziddiyatlari kuchaygan davri bo'lib, unda o'ziga xoslik vujudga keladi. Boshqa Amerikalik psixolog Erik Erikson (1902-1981) «Bolada o'z maqsadiga erishish yo'lida «ishbilarmonlik» va «ta'sirchanlik» sezgilari paydo bo'ladi. Bu yonida mehnatga munosabatning asosi tarkib topadi» deydi. «O'tish davri»dagi bolalarda xayolparastlik xususiyati boshlanadi. U tevarak-atrofdagi turli hodisalar sababini bilishga intiladi. O'z ichki ehtiyojini qondirish maqsadida har-xil rejalar tuzadi va o'zining psixik holatlarini sezmaydi. Agar u xafa bo'lsa, bunga atrofdagi muhitni sababchi qilib ko'rsatishga urinadi. O'quvchilarning «o'tish davri»dagi har-xil qiliklarini hisobga olib tashkil qilingan ta'limning samaradorligi ortadi. Bunda o'quvchilarning psixik o'zgarishlariga mos didaktik metodlarni qo'llab, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Darsda o'quvchilar faoliyatining xilma-xilligini ta'minlash ko'p o'quv predmetlari qatori chizmachilik o'qitish metodikasining ham diqqat markazidagi vazifalardan biri bo'lib qoldi. Grafik ishlar o'ziga xos xususiyati, o'qishga doir

bilim va malakalar hajmi va texnikada taalluqli sistemalashtirilgan bilimlar bilan xarakterlanadi.

V.V.Stepakova o‘quvchilarning bir darsdagi ish qobiliyatlarini tekshirib, ular dastlabki 10-15 daqiqada 10 ta so‘zdan 9 tasini eslab qolishini, ya‘ni 90% o‘zlashtirishini, keyingi 5 daqiqada Yangi bilimlar ololmasligini va eski bilimlar bilan ishlashni navbatdagi 20-25 daqiqada 10 ta so‘zdan 6 tasini esda saqlashni ya‘ni 60% o‘zlashtirishni aniqlagan. Anna shu tadqiqot natijalariga ko‘ra chizmachilik bo‘yicha didaktik o‘yinlarni darsning 15-20 daqiqasidan keyin 5-6 daqiqa o‘quvchilarning ishini almashtirish va faolligini o‘tilayotgan mavzuga qaratish maqsadida o‘tkazish mumkin. Bu didaktik o‘yinlar bir mavzudan ikkinchi mavzuga, bita grafik tushunchadan ikkinchisiga o‘tishda «ko‘prik» vazifasini bajarish lozim. Didaktik o‘yinlarni tuzishda har bir darsni muayyan bo‘laklarga ajratib, o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan tushuncha va ko‘nikmalarni belgilab chiqish, so‘ngra dars bosqichlariga tegishli o‘yinni oldindan rejalashtirib qo‘yish va u darsning umumiy yo‘nalishiga uyg‘unlashib ketishi kerak. Shundagina mazkur o‘yinlar bolalarning grafik savodxonligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘yinlar va ularning ahamiyati. Tabiatan bolalar jim o‘tira olmaydilar va doimo harakatda bo‘ladilar. O‘yin bolalarning tabiiy hamrohi bo‘lib, ularga mamnunlik va quvonch baxsh etadi. Bolalar o‘yin orqali dunyoni, ya‘ni tevarak-atrofni biladilar, mehnat qilishni o‘rganadilar, ya‘ni tarbiyalanadilar. Ular o‘yinlarda o‘zlari sevgan qaxramonlar qiyofasi va holatiga kirib, rostgo‘ylik, ziyraklik, chaqqonlik, bardoshlilik, tadbirkorlik va g‘alabaga intilish kabi fazilatlarni namoyish qiladilar.

Bolalarning barcha o‘yinlarini o‘ziga xos jozibaga ega va shuning uchun ular zo‘r ishtiyoq bilan o‘ynaydilar. O‘yin bolalarning organizmida kata o‘zgarishlar ro‘y berishga ham sabab bo‘ladi. O‘yinda vujudga keladigan vaziyatlar bolalardan turli masalalarni tezkorlik bilan hal etishni talab qiladi. Shunday paytlarda bola o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga solib, mushkul ahvoldan qutulishga tirishadi. Shuning uchun o‘yinlar bolalarning o‘sishida muhim o‘rin tutadi, ularni mustaqillikka undaydi. O‘yin qoidalari asrlar davomida halq tomonidan yaratilgan, binobarin o‘yinning tarbiyaviy ahamiyatga ko‘proq e‘tibor berilgan. Shunga ko‘ra maroq bilan ko‘p o‘ynaydigan bolalar zexni o‘tkirligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bolalar jamoa bo‘lib o‘ynashganda bir-birining tartibsizligini, g‘irrom o‘ynayotganini darov o‘ziga aytadilar. Boshqalarga nisbatan aqlli, chaqqon, kuchli va hozirjavobroq bo‘lishga intiladilar. SHu sababli bolalar ko‘pincha birgalashib o‘ynashni yoqtiradilar va bunday paytlarda ularning o‘rtoqlik, bir-birini himoya qilish, jamoachilik kabi fazilatlari rivojlanadi. O‘yin bolalar o‘zini o‘zi tarbiyalash tabiiy vaziftda amalga oshadi. Bolalar olmagan

tirishqoqlik, talabchanlik, epchillik kabi sifatlarini o‘yinlarda yaqqol namoyish qiladi. Bolalar o‘yinlarda o‘zlarini erkin tutadilar va o‘zlariga juda yuqori talablarni qo‘yadilar, qiyin vaziyatlardan o‘zlaricha chiqishga harakat qiladilar. Tabiiyki, o‘zicha harakat qilgan har qanday qiyinchilikni, mushkullikni engishga qodir bo‘ladi. O‘yinlarda sho‘xlik qilish, ortiqcha hayajonlanish bolalar uchun tabiiy holdir. Shuningdek, ular taqlidchan bo‘ladilar, hayolga kelmagan narsalarni o‘ylab topadilar. Shuning uchun ular chizmachilikdan didaktik o‘yinlar o‘tkazilayotgan plakat chizmaalardagi tasvirlar yoki modellarni yuzaki idrok qilib, boshqa narsalarga o‘xshatishlari tabiiydir. Bolalarning bu xususiyatlaridan foydalanish maqsadida, detallarni hayotdagi narsalarga taqqoslash orqali ularning mustahkam idrok qilishiga erishish kerak. Umuman o‘yinni go‘dak boladan tortib mo‘ysafidgacha o‘ynashi mumkin. Lekin odamlar o‘z yoshiga mos o‘yinlarnigina o‘ynaydilar. Masalan, bolalar harakatli o‘yinlarga, kattalarga esa aqliy faoliyatni talab qiladigan o‘yinlarga moyil bo‘ladilar.

Har xil o‘yinlar mavjud va ular halq pedagogikasining mahsuli bo‘lib, o‘qituvchilar ham dars jarayonida shu samarali foydalanishlari mumkin. Ma’lumki, chizmachilik 7-8 sinflarda o‘qitiladi va bu yoshdagi bolalar o‘yinning mazasiga tushungan ya’ni o‘yinqaroq bo‘ladilar. SHuning uchun darslarda tinch o‘tirib chizmalarni chizishga sabr-toqat qila olmayilar, tezda toliqa boshlaydilar.

O‘quvchilarning yuqoridagi xususiyatlarini o‘rganib chizmachilik darslarida o‘yin elementlaridan foydalanishni lozim topdik. O‘qituvchi o‘quvchilarning zerikkanini sezishi bilan 5-6 daqiqalik o‘yin o‘tkazishi kerak. Chizmachilikdan o‘tkaziladigan sinfdagi barcha o‘quvchilar diqqatini qisqa muddatli o‘yinga jalb qila bilish zarur. Qisqagina o‘yinda ishtirok etishga, fikrlashga intilishlari ularning butun his-tuyg‘ularini ishga soladi. O‘yinning qiziqarli, jonli va samarali o‘tishi ko‘proq o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqdir.

O‘qituvchi bolalar psixologiyasiga aynan muvofiq o‘yin elementlaridan foydalansa, Chizmachilik fanidan bir necha adabiyotlar muallifi V.A.Gerverning aytishicha, har bir darsda ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Bordiyu, bu ishga loqayd qarab o‘yinlarni sust, zavqsiz o‘tkazsa, bolalarning o‘yinga qiziqishi yo‘qolishi, o‘yinlar hech qanaqa samara bermasligi shubhasizdir. SHuning uchun o‘qituvchi har bir o‘yinga tayyorlanishda uning bolalarda zavq-shavq uyg‘otishni hisobga olishi kerak. Har bir o‘yin bolalar uchun qiziqarli va muayyan maqsadga qaratilgan bo‘lishi lozim. O‘yinda beriladigan savollar ham, unga qaytiriladigan javoblar ham juda qisqa, aniq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o‘yinlar soddadan-murakkabga printsipida, o‘quvchilarning aqliy ishlashini faollashtirishga mo‘ljallab tuzilgan. Bunda o‘quvchilarning tafakkurini,

fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini o‘stirishga ham jiddiy ahamiyat berilgan. Odatda o‘quvchilar an’anaviy darslarda olgan bilimlar etarli darajada puxta bo‘lmaydi va o‘quvchilar ularni muayyan sharoitda tadbiq qila olmaydilar. Masalan, 7-8 sinflarda chizmachilik bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarini oliy o‘quv yurtida namoyish qila olmaydilar. Chizmachilik darslarida didaktik o‘yinlar qo‘llansa, o‘quvchilarning bilimi mustaxkam bo‘ladi, degan umiddamiz. Chunki o‘yinda faol qatnashadigan o‘quvchi bilimni hayajon va zavq-shavq bilan o‘zlashtiradi. Bunday bilim puxta bo‘lib, o‘quvchining xotirasida ko‘p yillar saqlanadi va kezi kelganda o‘quvchi uni eslaydi va amalda qo‘llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Azimov T , «Chizma geometriya», “Iqtisod moliya”, 2008 y.
2. 7. Yodgorov J., «Chizma geometriya», «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2007, 232 bet.
3. Rahmonov I. T. Chizmachilikdan test.- T., «O‘qituvchi». 1994.
4. P.Odilov va boshqalar. Chizmachilik., - T., TDPU. 2000.
5. I.Raxmonov va boshqalar, Chizmachilikdan ma'lumotnoma, Toshkent, Alisher Navoiy kutubxonasi, 2005.
6. Murodov SH., Tashimov N., «Grafika tarixi va taraqqiyoti», Toshkent, 2011, TDPU rizografi.
7. Maxmudov, A. (2022). Chizmachilik darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta’lim samaradorligini oshirish. *Физико-технологического образование*, 1(1).